

**MARKAZLARDAGI FAOLIYATLARDA INNOVATSION  
TEXNOLOGIYALAR VA DIDAKTIK O‘YINLARDAN  
FOYDALANISHNING AHAMIYATI**

**Azamatova Dildora Shuxrat qizi**

Toshkent davlat pedagogika universiteti magistranti

E-mail: [yuldashovadildora2@gmail.com](mailto:yuldashovadildora2@gmail.com)

**Annotatsiya:** Maqolada rivojlantiruvchi markazlarda ta’lim-tarbiya faoliyatlari jarayonida innovatsion texnologiyalar va didaktik o‘yinlardan foydalanish xususida so‘z yuritiladi. Didaktik o‘yinlarni tashkil etishning metodik jihatlari bayon etilgan. Didaktik o‘yinlarning tashkiliy qismlari keltirilgan.

**Kalit so‘zlar:** MTT, “Ilk qadam” dasturi, faoliyat, jarayon, ta’lim-tarbiya, takomillashtirish.

**THE IMPORTANCE OF USING INNOVATIVE TECHNOLOGIES AND  
DIDACTIC GAMES IN ACTIVITIES OF DEVELOPMENTAL CENTERS**

**Abstract:** The article discusses the use of innovative technologies and didactic games in the educational process through developmental centers. Also, methodological aspects of the organization of didactic games are described and organized of didactic games.

**Keywords:** Preschool education organization, “Ilk qadam” program, activity, process. education, development.

Maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarmog‘ini kengaytirish, malakali pedagog kadrlar bilan ta’minlash, bolalarni maktab ta’limiga tayyorlash darajasini tubdan yaxshilash, ta’lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy ta’lim dasturlari va

texnologiyalarini tadbiq etish, bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish maqsadida “2017-2021 yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida” gi PQ-2707-sonli qarori, “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to’g’risida”gi O’RQ-595-sonli qonuni, 2019-yil 8-maydagi “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to’g’risida”gi PQ-4312-sonli qarori qabul qilindi [1].

Ushbu me’yoriy hujjatlar maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ilg’or xorijiy tajribani hisobga olgan holda bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik, va jismoniy rivojlantirish sharoitlarini yaratish, maktabgacha ta’lim sifatini oshirish, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarni maktab ta’limiga sifatli tayyorlashni tubdan yaxshilash, ta’lim-tarbiya jarayoniga jahon amaliyotida keng qo’llaniladigan zamonaviy ta’lim dasturlari va texnologiyalarini joriy etish imkoniyatini yaratadi [2].

Bugungi kunda barcha MTTlarda o’quv-tarbiyaviy faoliyat ishlari “Ilk qadam” davlat o’quv dasturi asosida amalga oshirilmoqda. Dastur bo’yicha rivojlantirish markazlari tashkil etilgan bo’lib, tarbiyalanuvchilar o’zlari xohlagan markazda o’z faoliyatini olib borishlariga imkon yaratildi. Bu borada tarbiyachilardan ta’lim-tarbiya jarayoniga innovatsion yondashishni va yangi pedagogik texnologiyalar orqali olib borishni talab qiladi [3].

Faoliyat – maktabgacha ta’lim tashkilotlaridagi ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etishning asosiy shakli hisoblanadi. Faoliyatlarda bolalar egallashi lozim bo’lgan bilim, ko’nikma va malakalari shakllantirib boriladi. Faoliyatlar o’z oldiga qo’ygan ta’limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi vazifalarni bajaradi. Faoliyatlarni olib borish dastur asosida amalga oshiriladi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida faoliyatlar “Ilk qadam” davlat o’quv dasturi asosida ta’lim-tarbiya jarayoniga innovatsion yondashuv asosida amalga oshiriladi. Chunki rivojlanish markazlarini tashkil etishning asosiy sharti pedagogdan tayyor bilim olishdan ko’ra, bolaga rivojlanish markazlarida faoliyatni tanlash imkoniyatini berish, bunda u atrofdagi dunyo haqida bilimlarni mustaqil ravishda egallashi,

ko‘nikmalari va qobiliyatlarini rivojlantirish, bolaga qiziquvchanlik, mustaqil izlanish, tadqiqot jarayoniga qo‘shilish imkoniyatini beradi.

Ilk qadam o‘quv dasturida bitta mavzu bir haftaga mo‘ljallangan bo‘lib, barcha faoliyatlarda turli xil metod va usullar orqali bolalarga umumiy tarzda tushuntirilib, so‘ngra hafta davomida turli markazlarda davom ettiriladi. Natijada bolalar bu mavzu bo‘yicha chuqur bilim, ko‘nikma va malakalarga ega bo‘ladilar va olgan bilimlarini amaliyotda qo‘llay oladilar.

Faoliyatlarni olib borishda innovatsion pedagogik texnologiyalardan va turli didaktik o‘yinlardan foydalanish orqali dasturda belgilanga kompetensiyalarni bajarilishiga to‘liq erishish mumkin. Ayniqsa didaktik o‘yinlardan foydalanish ta’lim-tarbiya samaradorligini oshiradi.

Didaktik o‘yinlar ma’lum qoida asosida tashkil etiladigan o‘yinlar hisoblanadi. Didaktik o‘yinlar orqali bolalarga yangi bilimlar, tushunchalar berib boriladi. Bu o‘yinlar bolalarning har tomonlama rivojlanishini takomillashtiradi. O‘yin qoidasiga rioya qilish o‘yin mazmunini boyitadi.

#### **Didaktik o‘yinlarning quyidagi turlari mavjud:**

- a) buyum va o‘yinchoq bilan o‘ynaladigan o‘yinlar
- b) stol-bosma o‘yinlari
- c) og‘zaki so‘z o‘yinlari [4].

Xulosa qilib aytganda MTTdagi faoliyatlar jarayonida bunday didaktik o‘yinlardan foydalanish bolalarda mantiqiy tafakkuri shakllantiradi, tartibli, intizomli bo‘lishiga, o‘rtoqlari bilan birgalikda ishlashga o‘rgatadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. “2017-2021-yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2707-sonli qarori / “Xalq so‘zi”. 29.12.2016y.
2. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari “Maktabgacha ta’limda davlat va nodavlat sektorini rivojlantirish: yangi shakllar va ta’lim mazmuni” 20 aprel 2019-yil II tom, 45-bet.
3. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari “Maktabgacha ta’limda davlat va nodavlat sektorini rivojlantirish: yangi shakllar va ta’lim mazmuni” 20 aprel 2019-yil II tom, 128-bet.
4. D.R.Babayeva Nutq o‘stirish nazariyasi va metodikasi. Darslik. – T.,2018. 217-218-betlar.